

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ATABAYEVA ZARNIGOR BAXRAN QIZI

**YEVROPA ADABIYOTIDA DEMONIZATSIYA
MOTIVINING BADIY TALQINI
(GYOTE VA OSKAR UAYLD ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Science**

Atabayeva Zarnigor Baxran qizi

Yevropa adabiyotida demonizatsiya motivining badiiy talqini
(Gyote va Oskar Uayld asarlari misolida)..... 3

Атабаева Зарнигор Бахран кизи

Художественная интерпретация мотива демонизации в европейской
литературе (на примере произведений Гете и Оскара Уайльда)..... 29

Atabaeva Zarnigor Bakhran kizi

Literary interpretation of demonization motif in European literature
(on the basis of Goethe and Oscar Wilde’s works)..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ATABAYEVA ZARNIGOR BAXRAN QIZI

**YEVROPA ADABIYOTIDA DEMONIZATSIYA
MOTIVINING BADIY TALQINI
(GYOTE VA OSKAR UAYLD ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2205 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Maxliyo Yunusovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qarshiboyeva Uljon Davirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning «___» _____ 2025-yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18; e-mail:info@samdhti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi ___ – raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon adabiyotshunosligida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik badiiy tafakkur taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida shakllanib kelmoqda. Bu ziddiyatlarning ildizi antik davr adabiyotiga borib taqaladi va ular keyingi davrlarda ham adabiy-estetik tafakkurda muhim mavzu bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv, raqamli madaniyat va madaniyatlararo muloqotning kuchayishi sharoitida insoniyatning ichki ruhiy kurashi, axloqiy tanlovlari va ma'naviy izlanishlari san'atda, xususan, badiiy asarlarda chuqur ifodasini topmoqda. Bu holat yaxshilik va yomonlik timsollarining zamonaviy talqinini, ularning falsafiy va estetik o'zgarishlarini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Yaxshilik va yomonlikning estetik talqini, ularning badiiy obrazlar orqali ifodalanishi hamda zamonaviy adabiy kontekstdagi ko'rinishlarini falsafiy va estetik yondashuvlar asosida tahlil qilish mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida Yevropada xristian dinining kirib kelishi va qabul qilinishi natijasida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kabi dualistik tushunchalarning shakllanishi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu konseptlar badiiy asarlarda o'z ifodasini topa boshladi. Dastlabki badiiy asarlarda bosh qahramonning yovuzlik bilan kurashi va uning ustidan g'alaba qozonishi tasvirlangan bo'lsa, Romantizm davriga kelib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi aniq chegara tobora yo'qola boshladi. Natijada, yovuzlik tushunchasi bosh qahramonning ichki dunyosiga singib, uning "men"iga aylanib bordi. Mazkur jarayon faqat Yevropa adabiyotigagina xos bo'lib qolmay, balki turli madaniy an'analarda ham namoyon bo'lib, bu madaniyatlararo ta'sirni o'rganish va qiyosiy tahlil uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan bir qatorda jahon adabiyotida demonizatsiya motivi va badiiy adabiyotda uning asosiy konsepsiyasi, badiiy asarlarda demonik obrazlarning semiotik ma'nolari va ularning estetik-psixologik funksiyalari, adabiyotshunoslikda faustchilik an'alarining badiiy maydonga chiqishi kabi jihatlarga e'tibor qaratish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi zarururiy vazifalarga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonda adabiyotshunoslik taraqqiyotining yangi bosqichi shakllanmoqda. Ilmiy izlanishlar, loyihalar va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi milliy adabiyotshunoslikning taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Shu bois, hozirgi kunda yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, bu jarayon sohaning barqaror rivojlanishi va istiqbolini ta'minlashga zamin yaratadi. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"¹. Natijada hozirgi davr o'zbek adabiyotini eng so'nggi jahon adabiyotshunosligidagi konseptik nazariyalar bilan qiyosiy tahlil qilish, ulardagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaga yo'llagan tabrigi// Manbaa: <https://xabar.uz/07.08.2018>.

uslub, mavzu, motiv tushunchalarini hamda ilgari surilayotgan ijtimoiy g'oyalarni puxta o'rganish, qo'llanilayotgan obrazlarni semiotik ma'nolari va ularning estetik-psixologik jihatlariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 376-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdagi "Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotida demonizatsiya masalasi bo'yicha sanoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan Richard Kerni, S. Uilson, S. Uayman, A. K. Mellor, S. Greenblatt, F. Botting, H. Bloom, J. Andriano, H. Cixous²larning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Nemis yozuvchisi va mutafakkiri Yoxann Volfgang Gyotening ijodi, jumladan uning dramalari va lirik she'rlari, shuningdek, inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar aks etgan romanlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, I. P. Ekkerman, R. Friedental, N. Boyle, R. Safranski, Y. Shmidt, R. Gray, E. Heller, T. Ziolkovski, R. J. Richards, P. Mishelsen, J. Adler, G. Shmidt, H. B. Nisbet, E. David Wellbery, P. D. Miller, A. W. James Heffernan, D. Simpson, H. J. Weigand³lar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

² Kearney R. Strangers, Gods, and Monsters: Interpreting Otherness. – London: Routledge, 2003. – P. 83-109; Wilson S. The Politics of Invisibility: Demonology and Sovereignty in Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 83-108; Wyman S. Demonic Bodies and the Dark Grotesque: Monstrosity and Metaphor in Southern Gothic Literature. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 2007; Mellor A. K. Romanticism and Gender. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – P. 68-78; Greenblatt S. Marvelous Possessions: The Wonder of the New World. – Chicago: University of Chicago Press, 1991. – P. 202; Botting F. Gothic. – London: Routledge, 1996. – P. 136; Bloom H. The Daemon Knows: Literary Greatness and the American Sublime. – New York: Spiegel & Grau, 2015. – P.57; Andriano J. Our Ladies of Darkness: Feminine Daemonology in Male Gothic Fiction. – University Park: Pennsylvania State University Press, 1993. – P. 63; Cixous H. The Newly Born Woman. – Manchester: Manchester University Press, 1975. – P. 190.

³ Eckermann J.P. Conversations with Goethe. – London: George Bell and Sons, 1836. – P. 40-65; Friedenthal R. Goethe: His Life and Times. – New York: Harcourt, Brace & World, 1963. – P. 618; Boyle N. Goethe: The Poet and

Viktoriya davrining mashhur shoiri, yozuvchi va dramaturg Oskar Uayldning ijodi hamda uning estetizmga qo‘shgan hissasi adabiyotshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, R. Ellmann, R. J. Richard, R. Gagnier, J. Gearey, D. Kiberd, A. Declan, J. Guy, K. Bekson, R. Karl, Raby, Peter, I. Small, D. Ian, M. Holland, Merlin, G. Vudkok, H. Jorj va E. H. Mikhail kabi olimlarning izlanishlari ushbu mavzuga bag‘ishlangan muhim ilmiy ishlanmalar sirasiga kiradi.⁴

O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan O. Kayumov, D. Tog‘ayeva, J. Eshonqulov, D. Quvvatova, T. Rahmonov izlanishlarida badiiy obrazlar talqini, demonologik hikoyalarning hususiyatlari borasida mazmunli izlanishlar olib borilgan va o‘zbek adabiyotshunosligining yangi ilmiy manbaalar bilan boyitilishiga hissa qo‘shganlar.⁵

Nemis va irland adabiyotshunosligida Gyote va Oskar Uayld falsafasining tadqiqi masalasiga yetarli darajada e‘tibor qaratilmaganligi bois mazkur yozuvchilarning asarlarini o‘rganish borasida ba‘zi muammolar hanuzgacha o‘z yechimini kutmoqda. Shu yo‘nalishlardan biri Gyotening falsafiy qarashlari va ularning badiiy asarda aks etishini tahlil qilish bilan birga, Dorian Grey obrazining demonizatsiya jarayonini tadqiq etish masalasidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

the Age. Volume II: Revolution and Renunciation (1790–1803). – Oxford: Clarendon Press, 2000. – P. 3-19; Boyle N. Goethe: The Poet and the Age. Volume I: The Poetry of Desire (1749–1790). – Oxford: Clarendon Press, 1991; Safranski R. Goethe: Life as a Work of Art. – Cambridge: Liveright Publishing Corporation, 2017. – P. 651; Schmidt J. Goethe in Germany: The Man and His Age. – New York: Cambridge University Press, 2001; Gray R. Goethe the Alchemist: A Study of Alchemical Symbolism in Goethe’s Literary and Scientific Works. – Cambridge: Cambridge University Press, 1952. – P. 46-51; Heller E. The Disinherited Mind: Essays in Modern German Literature and Thought. – Cambridge: Bowes & Bowes, 1952. – P. 384; Ziolkowski T. The Classical German Elegy, 1795-1950. – Princeton: Princeton University Press, 1980. – P. 98-100; Richards R.J. The Romantic Conception of Life: Science and Philosophy in the Age of Goethe. – Chicago: University of Chicago Press, 2002. – P. 376-385; Michelsen P. Goethe’s Faust: A Critical Reading. – New York: Peter Lang Publishing, 1992. – P. 192-206; Adler J. Goethe’s Visual World. – Chicago: University of Chicago Press, 2010. – P. 256; Schmidt H. Goethe’s Conception of Knowledge and Science. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Nisbet H. B. Goethe and the Scientific Tradition. – London: Methuen & Co, 1972. – P. 76-80; Wellbery D.E. The Specular Moment: Goethe’s Early Lyric and the Beginnings of Romanticism. – Stanford: Stanford University Press, 1996. – P. 114-115; Miller D. P. The Scientific Genius of Goethe: Essays on his Science. – New York: Springer-Verlag, 1988. – P. 329; Heffernan J.A.W. Cultivating Pictorial Imagination: Goethe and the Visual Arts. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 437; Simpson D. Goethe, Romanticism and the Anglo-Saxon Tradition. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – P. 35-60; Gearey J. Goethe’s Faust: The Making of Part I. – London: Yale University Press, 1981. – P. 228.

⁴ Ellmann R. Oscar Wilde. – New York: Knopf, 1988. – P. 736; Gagnier R. Idylls of the Marketplace: Oscar Wilde and the Victorian Public. – Stanford: Stanford University Press, 1986. – P. 255; Kiberd D. Inventing Ireland: The Literature of the Modern Nation. – Cambridge: Harvard University Press, 1995. – P. 21-49; Guy J. The Complete Works of Oscar Wilde: The Picture of Dorian Gray// Criticism: Historical criticism, Intentions, The Soul of Man. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – P. 702; Beckson K. Oscar Wilde: The Critical Heritage. – London: Routledge, 1970. – P. 434; Raby P. Oscar Wilde. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – P. 67-80; Small I. Oscar Wilde Revalued: An Essay on New Materials and Methods of Research. – New York: St. Martin’s Press, 1993. – P. 373; Holland M. The Wilde Album. – New York: Henry Holt & Co., 1997. – P. 192; Woodcock G. The Paradox of Oscar Wilde. – London: Tarcher, 1949. – P. 237; Mikhail E. H. Oscar Wilde: Interviews and Recollections. – New York: Barnes & Noble, 1979. – P. 502

⁵ Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazi: Filol. fanlari nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 25; Tog‘ayeva.D. O‘zbek og‘zaki demonologik hikoyalarning janr xususiyatlari va badiiyati. Filol.fan nomz.diss.avtoref. – Toshkent, 1995; Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Filol. fanlari dokt...diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 47; Quvvatova D. O‘zbek ilmiy-badiiy fantastikasida folklor motivlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1997. – B. 24; Rahmonov T.L. Qadimgi miflar o‘zbek folklori epik motivlarining o‘zagi sifatida: Filol. fan. nomz.... diss. – Toshkent, 1997. – B. 159.

Samarqand davlat chet tillari institutining “Yevropa adabiyoti tarixi va dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari” ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Yevropa adabiyotida demonizatsiya motivining Gyote va Oskar Uayld asarlari asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

jahon adabiyotshunosligida demonizatsiya motiviga oid nazariy fikrlarni o‘rganish, uning mohiyatini, o‘ziga xos poetik xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ochib berish;

badiiy asarda simvolik obrazlarning demonlashish holatini izohlab, uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-hayotiy omillarni, turli janrlarda ifodalanish tamoyillarini qiyosiy-tipologik jihatdan dalillash;

adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish bilan Gyotening “Faust” asarida inson qalbi uchun kurash masalasini ilmiy-estetik jihatdan asoslab, Gyote falsafasi va doktor Faust ruhiyatidagi evrilishlarning o‘ziga xosliklarini aniqlash;

Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarida inson konsepsiyasining adabiy-estetik mohiyatini hamda Dorian Grey obrazining demonizatsiya jarayonini ijtimoiy-psixologik va qiyosiy-tipologik tahlil asosida ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis yozuvchisi Yohann Volfgang Gyotening “Faust” va ingliz (irland) yozuvchisi Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” (The picture of Dorian Gray) asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Yevropa adabiyotining namunalari asosida demonizatsiya motivining badiiy adabiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy yoritishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy, psixologik, germeneytik va qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Yevropa adabiyotshunosligida demonizatsiya motivining yovuzlik va tartibsizlik, qo‘rquv va noma‘lumlik kabi mavzularda kelishi ochib berilib, badiiy ifodalanishda demonizatsiya motivi faqat yovuzlik belgisi emas, butun badiiy matnda mavzu, syujet va personajlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini harakatga keltiruvchi fundamental struktura sifatida maydonga chiqishi aniqlangan;

badiiy asarlarda simvolik obrazlarning demonlashuvi jarayonga sabab bo‘luvchi ijtimoiy tengsizlik, ma‘naviy inqiroz, shaxsiy fojialar kabi hayotiy omillar hamda ushbu motivning drama, tragediya va fantastika janrlarida syujetni syujetning dramatik ta‘sirini oshirish, konfliktni keskinlashtirish kabi ifodalanish tamoyillari ochib berilgan;

adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish orqali Gyotening “Faust” asarida inson qalbi uchun kurash asoslab berilgan. Shuningdek, Gyote falsafasi hamda doktor Faust ruhiyatidagi demonik evrilishlar dastlab jodugarlik, alkimyo va sehr bilan bog‘liq tarzda tasvirlangan, keyinchalik esa insonning bilimga chanqoqligi va cheksizlik sari intilishi ramziga aylangani ochib beriladi;

Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarida inson konsepsiyasining adabiy-estetik mohiyati ochib berilib, Dorian Grey obrazidagi xudbinlik,

axloqiyatsizlikka moyillik va tashqi go‘zallikka mutlaq bog‘liqlik kabi jihatlar hamda uning demonizatsiya jarayoni ijtimoiy-psixologik hamda qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy adabiyotda obraz yaratish muammosi – arxetip, motiv, simvolik obrazlarning demonlashish holati, jahon adabiyotida demonizatsiya motivlari ilmiy asoslandi;

Gyotening “Faust” asarida inson qalbi uchun kurashning badiiy talqini, adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, Gyote falsafasining badiiy asardagi aks etishi keng tadqiq qilindi. Shuningdek, Mefistofel obrazi va doktor Faustning ruhiy o‘zgarishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

Estetizm adabiyotida inson konsepsiyasi Dorian Grey obrazi misolida tahlil qilinib, uning badiiy talqini turli aspektlarda o‘rganildi;

ilmiy tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan tavsiyalar jahon adabiyoti bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun amaliy qo‘llanma bo‘la olishi isbotlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi jurnallar, hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, adabiyotshunoslikda demonizatsiya motivining rivojlanish xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinib, bu fenomenning poetik xususiyatlarini ochib berish, badiiy asarlardagi simvolik obrazlarning demonlashuv jarayoni va uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-hayotiy omillarni qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq etish imkonini beradi; demonizatsiya fenomenining jahon adabiyotidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qilib, adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil metodologiyasiga qo‘shimcha nazariy fikrlar taklif qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti va badiiy tahlil fanlariga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarini mukammallashtirishga, olingan ilmiy xulosalar va tavsiyalar universitetlarning filologiya va adabiyotshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitiladigan kurslarda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iogan Volfgang fon Gyote va Oskar Uayld asarlari misolida Yevropa adabiyotida demonizatsiya motivining o‘ziga xos o‘rnini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

Yevropa adabiyotshunosligida demonizatsiya motivining yovuzlik va tartibsizlik, qo‘rquv va noma‘lumlik kabi mavzularda kelishi ochib berilib, badiiy ifodalanishda demonizatsiya motivi faqat yovuzlik belgisi emas, butun badiiy matnda mavzu, syujet va personajlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini harakatga keltiruvchi fundamental struktura sifatida maydonga chiqishi aniqlanganligidan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, AQSH departamenti va O‘zbekistondagi AQSH elchixonasi bilan hamkorlikda 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan “The English Access Microscholarship Program” – “O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va kompyuter

savodxonligini oshirish” mavzusidagi SUZ 280021GR3106-sonli innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-sentabrdagi 01/526-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu loyihada demonlashuv motivining jahon adabiyotida tutgan o‘rni va uning mashhur asarlarda qo‘llanish mahorati badiiy tahlil qilindi.

badiiy asarlarda simvolik obrazlarning demonlashuvi jarayonga sabab bo‘luvchi ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy inqiroz, shaxsiy fojialar kabi hayotiy omillar hamda ushbu motivning drama, tragediya va fantastika janrlarida syujetni dramatiklashtirish, konfliktni keskinlashtirish kabi ifodalanish tamoyillari ochib berilgan xulosalardan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda dastur va fanlarni ingliz tilida o‘qitish strategiyasini ishlab chiqish va ushbu strategiyani keng joriy etish bo‘yicha milliy rejani ishlab chiqish maqsadida 2020-yil 29-oktabrda 224U-sonli “EMI (English as a medium of instruction)” loyiha doirasida foydalanildi (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2024-yil 17-sentabridagi 04/1-941-son ma’lumotnomasi). Natijada, bu loyiha bo‘yicha tayyorlangan resurslar mazmunini boyitish imkonini berdi.

adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish orqali Gyotening “Faust” asarida inson qalbi uchun kurashi asoslab berilgan, shuningdek, Gyote falsafasi hamda doktor Faust ruhiyatidagi demonik evrilishlar dastlab jodugarlik, alkimyo va sehr bilan bog‘liq holda tasvirlanishi, keyinchalik u inson bilimga chanqoqligi va cheksizlik sari intilish ramziga aylanganligi ochib berilganligi natijalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024- yilning 18-sentabr kuni efirga uzatilgan “Yoshlar yurt tayanchi” radio dasturining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 20-sentabrdagi 01-07/256-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy tadqiqot materiali dasturni ingliz tilini o‘rganuvchilar orasida Yevropa adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlarini, ularning badiiy obraz haqidagi bilimlarini eng so‘nggi ilmiy yangilik bilan boyitishga xizmat qildi.

Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarida inson konsepsiyasining adabiy-estetik mohiyati aniqlanib, Dorian Grey obrazidagi xudbinlik, axloqiyatsizlikka moyillik va tashqi go‘zallikka mutlaq bog‘liqlik kabi jihatlar hamda uning demonizatsiya jarayoni ijtimoiy-psixologik va qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan dalillanganligidan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800- 21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanildi (Qarshi davlat universiteti 2024-yil 18-oktabrdagi 03/3304-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yevropa adabiyotshunosligida demonizatsiya motiviga oid nazariy fikrlar o‘rganildi, uning mohiyatidagi o‘ziga xos poetik xususiyatlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining

asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Adabiyotshunoslikda demonizatsiya motivining taraqqiyot bosqichlari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda adabiyotshunoslikda obrazlar tizimi, arxetip va motivlar tahlili, jahon adabiyotida demonizatsiya motivining rivojlanish bosqichlari, badiiy asarlarda demonik obrazlarning semiotik ma'nolari kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Bobning birinchi fasli **“Adabiyotshunoslikda obrazlar tizimi va ularning ilmiy-nazariy asoslari: arxetip va motivlar tahlili”** deb nomlanib, ushbu faslda demonik obrazlarning inson ongida mavjud bo'lgan umumiy arxetiplar bilan bog'liqligi, ularning badiiy talqinda qanday shakllanishi, o'quvchining assotsiativ tafakkuriga qanday ta'sir qilishi hamda ularning ma'naviy-estetik mazmuni ilmiy – nazariy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotshunoslikda obraz – voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtiradigan va o'zgartiradigan karakterlovchi estetik kategoriyadir. Shu bilan birga, ma'lum vaqt va makon uchun mavjud bo'lgan real narsaning hissiy jihatdan aniq, to'liq amalga oshirilgan va yetuk fazilatlariga ega bo'lgan voqelikning badiiy tasviridir – deya e'tirof etiladi. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.⁶ Mazkur konsept ikki xil (keng va tor) ma'nolarni ifodalab, keng ma'noda yozuvchining g'oyalari va hissiyotlarini o'z ichiga olgan hayot manzarasini ifodalaydi. Tor ma'noda esa badiiy asarda tasvirlangan inson siymosini anglatadi⁷. Obrazda ijodiy fikr subyektiv va obyektiv idrok bilan hamohanglikni tashkil etadi.

Kanadalik adabiyotshunos Nortrop Fray, Yungning g'oyalari ta'sirida, **“Tanqid anatomiyasi”** asarida arxetiplar va motivlardan foydalanish masalasini chuqur tahlil qilib, kengaytirgan. U adabiyotning ushbu tushunchalar tizimi sifatida qaralishi mumkinligini ta'kidlab, ularning umumiy tuzilishini yoki **“mitos”**ni shakllantirishni asoslab beradi⁸. N. Fray ushbu takrorlanadigan obraz va mavzularni turli janrlarga ajratadi, har biri o'ziga xos motivlar to'plamiga egaligini batafsil yoritadi⁹. N. Fray nazariyasiga ko'ra, arxetipik motivlar adabiy asarlarning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ularni madaniy va tarixiy chegaralardan mustaqil ravishda bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

⁶ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 90.

⁷ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 91-92.

⁸ <http://www.philosophy.ru/iphras/library/phnauk2/SCIENCE9.htm> [Murojat etilgan sana: 19.11.2024]

⁹ Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 110.

Ingliz adabiyotida “fojia qahramoni” arxetipi badiiy obrazlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan umumiy strukturalar va narrativ modellarning namoyon bo‘lishini tahlil etishga imkon beruvchi muhim adabiy fenomen hisoblanadi. Ingliz adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri Shekspirning “Hamlet” va “Makbet” pyesalarida fojiali qahramon arxetipi batafsil yoritiladi; Hamletning ikkilanishi va qaror qabul qilishdagi sustkashligi hamda Makbetning haddan tashqari ambitsiyasi va hokimiyatga bo‘lgan ochko‘zligi ularning halokatiga olib keladi.

Ushbu arxetip taqdir va irodani tanlash motivi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson tabiati hamda axloqiy murakkabliklarni tahlil etishga xizmat qiladi¹⁰. Bundan tashqari, ingliz adabiyotida arxetiplar va motivlardan foydalanish nafaqat badiiy obraz yaratish usuli, balki o‘quvchining ongsiz hissiy va ma’naviy tajribasiga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Yungning nazariyasiga ko‘ra, ushbu elementlar o‘quvchilarga inson tajribasi va hissiyotlari bilan bog‘liq umumiy tajribalarni eslatishi tufayli ta’sir ko‘rsatadi hamda hikoyani yanada qiziqarli va ommabop qiladi¹¹.

O‘zbek olimlari tomonidan badiiy obrazga berilgan ta’rif va izohlar bugungi kunda ushbu yo‘nalishda izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hotam Umurov fikriga ko‘ra, obraz so‘zining kelib chiqishi slavyan tillariga mansub bo‘lib, olim so‘zning kelib chiqish tarixi bo‘yicha quyidagicha izoh keltiradi: “Obraz so‘zi ‘raz’ – ‘chiziq’ so‘zidan olingan bo‘lib, raz so‘zidan razit – chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq va undan obrazit - chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq so‘zi yasalgan. Obrazitdan obraz umuman o‘yilgan tasvir kabi tushunchalar hosil qilingan”¹².

Jahon adabiyotshunosligida arxetip haqidagi dastlabki tushunchalar turli tadqiqotlar natijasida shakllangan bo‘lib, ularning barchasi ilmiy jihatdan e’tiborga loyiqdir. Shunga qaramay, arxetipning yagona ilmiy ta’rifi mavjud emas. Rus adabiyotshunos olimlaridan S. S. Averintsev, A. S. Kozlov, E. A. Meletinskiy, A. M. Panchenko, I. P. Smirnovlar adabiyotshunoslikda arxetip tushunchasi ustida tadqiqotlar olib bordilar. Bu olimlar safiga o‘tgan asrning oxirlarida A. Yu. Bolshakova, E. Yu. Vlasenko, A. A. Faustov va G. V. Yakushevalar ham qo‘shildilar.

Mashhur shveytsariyalik psixolog va faylasuf K. G. Jung XX asrning boshlarida bu iborani ilmiy qo‘llanishga kiritgan olimlardan biri deya e’tirof etiladi¹³. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ushbu atama dastlab faqat psixologik faoliyat doirasida qo‘llanilgan. Mifologlar, folklorshunoslar va adabiyotshunoslar esa XX asrning o‘rtalariga qadar ushbu tushunchani o‘z ilmiy tadqiqotlarida deyarli qo‘llamaganlar.

Arxetip atamasining etimologik kelib chiqishini tahlil qilganimizda, uning yunon tilidan olingani aniqlandi: *arche* – “boshlang‘ich” va *typos* – “namuna”. Boshqacha aytganda, bu tushuncha “prototip” yoki “protoform” ma’nolarini

¹⁰ Bradley A.C. Shakespearean Tragedy: Lectures on Hamlet, Othello, King Lear, Macbeth. – London: Macmillan, 1904. – P. 129-175.

¹¹ Jung C.G. The Archetypes and The Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1959. – P. 65.

¹² Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 33

¹³ Власенко Е.Ю. Проблема архетипов и архетипических образов в литературоведении. // Сибирский научный вестник. - 2011. – С. 181-189.

anglatadi. K. G. Jung “Kollektiv ongsizlik arxetiplari haqida” asarida arxetiplarni eng qadimgi, ibtidoiy turlar sifatida talqin qilib, ularni qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan universal tasvirlar deb hisoblaydi hamda kollektiv ongsizlikning asosiy substansiyasi sifatida ko‘rsatadi¹⁴. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, arxetiplarni aniqlash usullaridan biri ularni hikoya, afsona, yashirin ta’limot yoki ertak bilan bog‘liq holda o‘rganish mumkin degan xulosaga kelindi. K. G. Jungning ta’kidlashicha, arxetipik tasvirlar va motivlar o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan turli mifologiyalar hamda san’at yo‘nalishlarida ham uchraydi. Ularni mif, yashirin ko‘rsatma yoki ertaklar bilan taqqoslash orqali ajratib olish usuli ham mavjud. Shu o‘rinda olim fikrining o‘zgacha talqinini ham keltirishimiz mumkin, arxetipik tasvirlar va motivlarning, masalan, toshqin yoki dunyoning oxiri haqidagi afsonalar odamlarning ijodiy fikrlash jarayonlarini shakllantiruvchi umumiy mexanizmlar orqali, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mifologiyalar va badiiy sohalarda paydo bo‘lishini tasvirlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, arxetiplarning ahamiyati shundaki, ular inson ongida tanishlik va tegishlilik hissini shakllantirish orqali madaniy va badiiy tafakkurning uzviyligini ta’minlaydi. Arxetiplarning bu xususiyati o‘quvchilarga metafora va mavzuni tasvirlashda voqealar qanday bo‘lishini oldindan bilish imkonini beradi. Ular ma’lum bir makon va zamonga tegishli obraz yoki motivda asar poetikasi xalq talabiga mos ravishda gavdalangan arxetiplar bilan shakllangan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Bobning “**Jahon adabiyotida demonizatsiya motivining rivojlanishi**” deb nomlangan ikkinchi faslida demonizatsiya motivining jahon adabiyotidagi rivojlanishi turli davrlar va madaniyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, demonizatsiya motivining qadimgi diniy va mifologik manbalardan boshlanib, keyinchalik gotika, romantizm, realizm, modernizm va postmodernizm davrlarida qanday shakllanganligi ko‘rsatilgan.

Demonizatsiya motivi jahon adabiyotida turli madaniyatlar va mifologiyalarda chuqur ildiz otgan bo‘lib, u ko‘p ming yillar davomida tadqiq etilayotgan hamda doimiy ilmiy izlanishlarni talab qiladigan mavzudir. Gotika madaniyati bo‘yicha xalqaro miqyosda tan olingan yetakchi ingliz olimi Devid Punter gotika janrini ko‘pincha demonizatsiyani ijtimoiy tartibning buzilishi hamda bostirilgan qo‘rquvlarning qayta yuzaga chiqishining ramzi sifatida talqin qilish nazariyasini ilgari suradi¹⁵.

Adabiyotda qarama-qarshi kuchlar, jumladan, yaxshilik va yovuzlikning to‘qnashuvi hamda inson tabiatining qorong‘u jihatlarini tadqiq etishda jin obrazlari ko‘pincha g‘ayritabiiy mavjudotlar yoki yovuz kuchlar sifatida talqin qilingan. Qadimgi Mesopotamiya mifologiyasi adabiyotda demonizatsiyaning birinchi qayd etilgan holatlaridan birini o‘z ichiga oladi. Keltirilgan manbalarda jinlar ko‘pincha koinotning o‘rnatilgan tartibiga tahdid soluvchi, tartibsiz va buzg‘unchi mavjudotlar sifatida tasvirlangan. Ular noma’lumlik va insoniyat sivilizatsiyasi chegaralaridan tashqarida mavjud bo‘lgan xavf-xatarlarning ramziy timsoli sifatida talqin qilingan.

¹⁴ Юнг К. Г. Архетип и символ / Сост. и вступ. ст. А.М. Руткевича. – М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2015. – С. 336.

¹⁵ <http://www.philosophy.ru/iphras/library/phnauk2/SCIENCE9.htm> [Murojat etilgan sana. 19.10.2024]

Qadimgi Mesopotamiya mifologiyasida demonizatsiya jarayoni adabiyotda yovuzlik va tartibsizlikni tushuntirishning dastlabki shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Jinlar (demonik mavjudotlar) kosmik tartibga qarshi chiqadigan, insoniyat uchun xavf tug‘diradigan va noma’lumlikni ifodalovchi yovuz kuchlar sifatida tasvirlangan. Bu jarayon adabiyotda yaxshilik va yovuzlikning qarama-qarshiligini aks ettirishning dastlabki namunalariidan biri sifatida ham ko‘riladi.

Demonizatsiya motivi ingliz adabiyotida boshqalarning farqliligi, qo‘rquv va noma’lumlik kabi mavzularni o‘rganish uchun kuchli vosita sifatida ishlatilgan. Bu motiv o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, ayniqsa, Gotika an‘analarida, ijtimoiy qo‘rquv va axloqiy dilemmalarni ifodalash uchun foydalanilgan. Ingliz yozuvchisi, Mary Shellining “Frankenshteyn” va Bram Stokerning “Drakula” kabi asarlarida ingliz adabiyotidagi demonizatsiya konseptini batafsil yoritib kitobxonga yetkazgan. Olimning ushbu asaridagi hayvon faqat jamiyat tomonidan emas, balki uning yaratuvchisi Viktor Frankenshteyn tomonidan ham demonlashtirilgan holati tasvirlangan. Ushbu demonizatsiya noma’lumlik va nazoratsiz ilmiy intilishning ehtimoliy oqibatlari qo‘rquvini o‘zida mujassam ettiradi. Shu bilan birga, olim hayvonning demonlashtirilishi, ma’rifatning qorong‘u tomoni, bilim izlashning axloqiy va ijtimoiy halokatga olib kelishi mumkinligini tanqid qiladi¹⁶.

Xuddi shunday, “Drakula” asarida asosiy qahramon yovuzlikning timsoli, Viktoriya Angliyasining axloqiy va ijtimoiy vaziyatlarini tanqid qiladigan demonlashtirilgan qahramon sifatida tasvirlangan. Stokerning demonizatsiya motividan foydalanishi ushbu davrning jinsiylik, immigratsiya va an‘anaviy qadriyatlarining inqirozi bilan bog‘liq qo‘rquvlarini tashqi ko‘rinishda namoyon etadi¹⁷.

Adabiyotda demonizatsiya motivining genezisi asosan ilk diniy va mifologik matnlarga borib taqaladi; ushbu davrda jinlar yovuzlik va betartiblik timsoli sifatida talqin qilingan. Qadimiy motivlar madaniy o‘zgarishlar natijasida adabiy asarlarga moslashtirilib, inson tajribasining qorong‘u jihatlarini o‘rganishda kuchli ramzlar sifatida xizmat qiladi.

“Jin” konseptiga islom adabiyotida quyidagicha ta’rif keltiriladi: *iroda erkinligi va yaxshilik va yomonlik o‘rtasida tanlov qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan g‘ayritabiiy, tutunsiz olovga asoslangan mavjudot*”. Ular ko‘p hollarda turli shakllarda va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan mavjudoddur va shu bilan birga insonlarning ruhiyatiga o‘rnashib olib, ularni yo‘ldan ozdiradi deya tavsiflanadi. Muqaddas dinimizda keltirilishicha, iblis motivi va insonlar o‘rtasida doimo kurashda mustahkam turish, ularga yengilib qolmaslik ta’kidlanadi.¹⁸

Jinlar G‘arb adabiyotida inson tabiatining qorong‘u va yorug‘ tomonlari o‘rtasidagi kurashning, ichki ziddiyatlarning kuchli timsoli sifatida gavdalantiriladi. Gyotening “Faust” kabi adabiy klassikalarda va Nil Geymanning “Qum odam” hikoyalarida ushbu atamalar ko‘p hollarda qahramonlarning iroda va xarakterlarini sinovchi mavjudotlar sifatida tasvirlanadi.

¹⁶ Shelley P.B. Prometheus Unbound. – London: C. J. Ollier, 1820. – P. 244.

¹⁷ <http://www.philosophy.ru/iphras/library/phnauk2/SCIENCE9.htm> [Murojat etilgan sana: 19.10.2024]

¹⁸ Husniddinov Z. Islom Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 152.

Demonizatsiya motivi borasidagi yalpi fikrni aytganda, jahon adabiyotidan tortib to sharq badiiy asarlarida ham, inson mavjudligining nozik tomonlarini va yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi abadiy ziddiyatni tekshirishning samarali usuli sifatida tahlilga tortiladi. Mualliflar bu yovuz kuchlarni jinlar sifatida tasvirlash orqali inson psixologiyasi, axloqi va ma'naviyatining yuksakligi borasida tadqiqotlarning natijalari bilan o'rtoqlashishlari mumkin. Demonizatsiya motivi uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarni hayratga solib kelgan jahon adabiyotida takrorlanayotgan muammo sifatida izlanuvchilarning asosiy muhokamasiga aylangan. Yozuvchilarning ba'zi personajlarni iblislar yoki yovuz odamlar sifatida gavdalantirilishi turli maqsadlarga xizmat qiladi, masalan, ijtimoiy qo'rquvni tasvirlash, axloqiy saboqlar berish yoki shubha yaratish kabilar shular jumlasiga kiradi.

Quyidagi jadval demonizatsiya motivining turli davrlardagi talqinini aks ettiradi. Unda har bir davrda demonik obrazlarning shakllanishi o'ziga xos ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstlarga bog'liq bo'lib, bu jarayon adabiyotda turlicha namoyon bo'lgani ko'rsatilgan.



1-rasm. Demonizatsiya motivning davriy tasnifi

Demonizatsiya motivi uzoq vaqt davomida jahon adabiyotida takrorlanib kelayotgan muammolardan biri bo‘lib, tadqiqotchilarning diqqat markazidagi asosiy tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘lgan. Yozuvchilarni ba’zi personajlarni tasvirlashda iblislar yoki yovuz odamlar sifatida gavdalantirish uchun turli maqsadlarga xizmat qiladi, masalan, ijtimoiy qo‘rquvni tasvirlash, axloqiy saboqlar berish yoki shubha yaratish kabilar shular jumlasiga kiradi.

Bobning **“Badiiy asarlarda demonik obrazlarning semiotik ma’nolari va ularning estetik-psixologik funksiyalari”** deb nomlangan uchinchi faslida badiiy asarlarda simvolik obrazlarning demonik o‘zgarishi, bu o‘zgarishlarning adabiyotda aks etishi, demonizatsiya orqali qahramonlar, obyektlar va landshaftlar g‘ayritabiiy yoki yovuz shakllarga aylanishi, shuningdek, bu o‘zgarishlarning ijtimoiy, psixologik va axloqiy ziddiyatlar orqali tasvirlanishi haqida tahlil qilingan.

Badiiy asarlarda simvolik obrazlarning demonik transformatsiyasi adabiyotshunos olimlar tomonidan inson tasavvurining g‘ayritabiiy va qorong‘u jihatlarini aks ettiruvchi murakkab estetik tushuncha sifatida talqin qilinadi. Badiiy adabiyot tarixidan ma’lumki, asrlar davomida rassomlar ilohiylikdan tortib nopoklikkacha bo‘lgan turli ma’nolardagi voqea-hodisalarni avlodlarga yetkazish uchun ramziy tasvirlardan foydalanganlar. Biz bunday ramzlarni shaytoniy shakllarga aylanishini rassomning yovuzlik haqidagi talqini, shuningdek, ularning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atish va an’anaviy e’tiqodlarga qarshi kurashish istagining aksi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu iblis o‘zgarishining mashhur misollaridan birini Ieronymus Boschning “Dunyo zavqlari bog‘i” asarida uchratamiz. Ushbu asarning mazmuni, Bosch grotesk va fantastik mavjudotlar bilan to‘ldirilgan syurreal va dahshatli manzarani tasvirlashdan iborat. Asarning markaziy qismida turli xil gedonistik harakatlar bilan shug‘ullanadigan o‘ralgan va buzilgan figuralar bilan indulgensiya va ortiqcha tartibsizlik holatlari tasvirlangan qismlarini ham ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, hayvonlar va inson qiyofalari kabi ramziy tasvirlardan foydalanish jinnilik va la’natga tushishni ko‘rsatadigan iblis shakllariga aylanadi. Badiiy asarlardagi shaytoniy o‘zgarishlarning yana bir misolini Fransisko Goyaning asarlarida, xususan, uning “Los Caprichos”¹⁹ nomli romanida o‘z aksini topadi. Ramziy obrazlarning iblisona shakllarga aylanishida Goyaning alohida xizmati shundan iboratki, jamiyatdagi buzuqlik haqidagi sharhini, shuningdek, uning g‘ayritabiiy narsalarga bo‘lgan maftunkorligini yoritishga xizmat qiladi. Shu jumladan, Zdislav Beksiński va X. R. Giger kabi ijodkorlar bezovtalik va qo‘rquv hissini uyg‘otish uchun ramziy tasvirlardan foydalangan holda dahshat, ilmiy fantastika va fantaziya elementlarini birlashtirgan hayratlanarli va o‘zga dunyoviy obrazlarni yaratganlar.

Adabiyotda simvolik obrazlarning demonizatsiyasi ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar va me’yorlarni sinash yoki ularni buzishga xizmat qiladi, ayniqsa, ezilgan guruhlarni tasvirlashda Amerikalik adabiyotshunos va shoira, feministik adabiy tanqidchisi, feministik nazariya va psixoanalitik tanqid sohalarida sermahsul ijod qilgan Sandra Gilbert va Indiana universitetining ingliz tili va ayollar tadqiqotlari bo‘yicha taniqli professori Syuzan Gubar o‘zlarining “Teshikdagi ayol”

¹⁹ <https://book.oxu.uz/web/kitoblar/152371402.pdf> [Murojat etilgan sana:19.10.2024]

asarida XIX asr adabiyotidagi ayol qahramonlarning demonizatsiyasi patriarxal hokimiyat tuzilmalarini mustahkamlash uchun tez-tez qo‘llaganligini ta’kidlaydilar. Ushbu demonizatsiya ayollarni irratsional, xavfli yoki axloqiy buzilgan sifatida tasvirlash orqali ularni boshqarish va cheklashga xizmat qilgan²⁰.

O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan O.Kayumov, D. Tog‘ayeva, J. Eshonqulov, D. Quvvatova, T. L. Rahmonova izlanishlarida badiiy obrazlar talqini, demonologik hikoyalarning hususiyatlari borasida mazmunli izlanishlar olib borilgan va o‘zbek adabiyotshunosligining yangi ilmiy manbaalar bilan boyitilishiga hissa qo‘shganlar.²¹ Umuman olganda, badiiy asarlarda ramziy obrazlarning iblisona o‘zgarishi ijodkorlar uchun inson tajribasining qorong‘u tomonlarini o‘rganish, shuningdek, yaxshilik va yomonlik haqidagi an’anaviy tushunchalarga qarshi kurashishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Rassomlar tanish ramzlarni shaytoniy shakllarga aylantirib, kitobxonlarni o‘zlarining qo‘rquv va tashvishlariga qarshi turishga taklif qiladigan, bezovta qiluvchi va o‘ylantiradigan asarlar yaratishi mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Gyotening “Faust” asarida inson qalbi uchun kurash masalasi”** deb nomlangan bo‘lib, bu bobda adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining badiiy maydonga chiqishi, Gyote falsafasining badiiy asarlardagi aksi, Gyote ijodida Mefistofel va doktor Faust obrazlarining evrilish jarayonlari haqida so‘z yuritiladi.

Bobning **“Adabiyotshunoslikda faustchilik an‘analarining badiiy maydonga chiqishi va rivojlanish bosqichlari”** deb nomlagan birinchi faslida Faustchilik an‘analarining tarixiy rivojlanishi va badiiy talqinlari, shuningdek, falsafiy va axloqiy muammolarning badiiy asarda aks etishi hamda insonning ilmga bo‘lgan cheksiz intilishlari va axloqiy qarorlar o‘rtasidagi kurashni tahlil qiladi.

O‘z jonini ilm va kuch evaziga shaytonga sotgan Faust haqidagi hikoya turli adabiy an‘analar orqali o‘zgarib, har bir zamonning axloqiy, ma’naviy va ekzistensial dilemmalarini aks ettirgan.

Gyotening “Faust” tragediyasi inson qalbi uchun kechadigan murakkab kurashni badiiy-falsafiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi asar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kurash ezgulik va yovuzlik, ma’naviy kamolot va nafsiy ehtiros, ilohiy haqiqat va shaytoniy vasvasa o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida aks ettiriladi.

Kristofer Marloning 1604-yilda yozilgan “Doktor Faustus” asari ingliz adabiyotida Faust afsonasining eng qadimgi va ta’sirchan badiiy talqinlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Marloning asarida taqiqlangan bilimga intilish jarayonida haddan tashqari zaiflik va manmanlikka berilgan olim arxetipi tasvirlanadi. Natijada u o‘z g‘ururining oqibatlarini bilan yuzlashadi. Marlo Faust obrazini Renessans

²⁰ Gilbert, S., & Gubar, S. (1979). *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*. Yale University Press. – P. 314

²¹ Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazi: Filol. fanlari nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 25; Tog‘ayeva, D. O‘zbek og‘zaki demonologik hikoyalarning janr xususiyatlari va badiiyati. Filol. fan nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1995; Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Filol. fanlari dokt...diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 47; Quvvatova D. O‘zbek ilmiy-badiiy fantastikasida folklor motivlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1997. – B. 24; Rahmonov T.L. Qadimgi miflar o‘zbek folklori epik motivlarining o‘zagi sifatida: Filol. fan. nomz.... diss. – Toshkent, 1997. – B. 159.

davridagi qarama-qarshi munosabatlarni aks ettiruvchi qahramon sifatida tasvirlab, ilm izlash va insoniy ambitsiyalar chegaralarini tanqidiy tahlil qiladi²². Marloning talqini kelajakdagi Faust mavzularini adabiyotda o'rganish uchun zamin yaratdi. Faustiy bitim, ya'ni shayton bilan tuzilgan kelishuv, qahramonning halokatiga olib kelib, shaxsiy ambitsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan axloqiy va ma'naviy ziddiyatlarning kuchli badiiy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotida ushbu motiv turli shakllarda aks etib, xususan, Shekspirning "Makbet" tragediyasida Makbet ham Faust singari hokimiyatga cheksiz intilishi natijasida fojiali qismatga duchor bo'ladi²³.

Faustchilik an'alarining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda, avvalo, g'arb adabiyotshunoslarining tadqiqotlariga murojaat qilib, ularni misollar asosida tahlil qilamiz. Verfel asarlaridagi Faustian motivlarini o'rganishda "Faustiylik" va "Faustona" tushunchalarini farqlash kerak²⁴. Olimning fikriga ko'ra, "faustiylik" atamasi ko'pincha faustiylik afsonasi bilan bog'liq holda keng ma'noda qo'llaniladi. U Faust bilan bog'liq g'oyalar, qadriyatlar va falsafiy jihatlarni ifodalashi mumkin, jumladan, bilimga intilish, ambitsiya, hokimiyat va muvaffaqiyatga tashnalik kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar, odatda, shayton bilan tuzilgan bitim yoki axloqiy murakkabliklarga sabab bo'ladi. "Faustona" yoki "Faustian" atamasi Faust personaji bilan bog'liq hodisalarni tasvirlash uchun qo'llanilib, uning shaxsiy xususiyatlari yoki hayotidagi muhim voqealarga ishora qilishi mumkin. "Faustona" tushunchasi Faustning adabiy qahramon sifatidagi xususiyatlari va harakatlarini, jumladan, bilimga intilish hamda maqsadlarga erishish yo'lida tavakkal qilishni aks ettiradi. Bunda "faustiylik" kengroq, falsafiy ma'noga ega bo'lsa, "faustona" asosan aniq adabiy obraz va uning xususiyatlari bilan bog'liq".

J. Golts va X. Shverte tadqiqotlariga tayanib aytish mumkinki, "Faustian" tushunchasi jahon adabiyotida Faust obrazi bilan bog'liq barcha jihatlarni ifodalaydi. Jumladan, gunoh qilishdan qo'rqish, tabularni buzish, shayton bilan do'stlashish va u bilan ahdlashish, uning so'zlariga quloq tutish hamda shu asosda jasorat ko'rsatish – bularning barchasi Uyg'onish davrida Germaniyada paydo bo'lgan Faust afsonasining mazmun-mohiyatini tashkil etgan.²⁵ Shvertening so'zlariga ko'ra²⁶, "Faustian" atamasi dastlab neytral egalik ma'nosiga ega bo'lib, Faust obraziga tegishli barcha jihatlarni ifodalagan. XVII asr va XVIII asr boshlarida yaratilgan Faust haqidagi talqinlarda uning obrazi qo'rquv va ogohlantirish ruhida tasvirlanganligi sababli, dastlab "faustiy" tushunchasi salbiy mazmunga ega bo'lgan.

"Faust" asarining qahramoni mashaqqatli bilim yo'lini bosib o'tgan va chin dildan izlanishga intilgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Mefistofel obrazi esa insonning

²² Marlowe C. Doctor Faustus. – London: Thomas Bushell, 1604. – P. 75-83.

²³ Bloom H. Shakespeare: The Invention of the Human. – New York: Riverhead Books, 1996. – P. 57.

²⁴ Волокитина Н.И. Фаустианские мотивы в творчестве Франца Верфеля: автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 19-20.

²⁵ Гольц Й. Фауст и фаустианское: актуальные аспекты одной полемики. // Балтийский филологический курьер. – 2009. – № 7. – С. 85-96.

²⁶https://www.researchgate.net/publication/326903030_Klaus_M_Schmidt_Faust_Mittelalterliche_Legende_-_Moderner_Mythos_In_Kunstler_Dichter_Gelehrte_Hrsg_v_Ulrich_Muller_und_Werner_Wunderlich_Unter_Mitarb_v_Margarete_Springeth_Redaktion_Bettina_Hatheyer_E

ma'naviy-axloqiy sinovlarini namoyon qiluvchi asosiy kuch sifatida gavdalanadi. U Faustni dunyoviy ehtiroslar, hokimiyat, sevgi va lazzatlar bilan aldashga harakat qiladi. Biroq Gyotening nuqtayi nazariga ko'ra, inson doimiy izlanish va intilishda bo'lsa, yovuzlik ta'siriga to'liq berilib ketmaydi. Shu sababli asarning final qismida Faust Mefistofelning hiylalariga hamda dunyoviy illatlarga qarshi turib, oxir-oqibat o'z ruhining najot topishiga erishadi.

G. G. Ishimbayevaning tasnifi N. R. Lenkova tomonidan "XX asr ingliz adabiyotida faustiy mavzu" nomli dissertatsiyada keltirilgan.²⁷ Faustian matnlar I. F. Shinkning "Doktor Faust" hamda N. Lenauning "Faust" asarlarida aks etgan bo'lib, K. Manning "Mefistofel" kitobida esa ushbu tasvirlarning har bir madaniy rivojlanish bosqichida doimiy dolzarbligi alohida ta'kidlanadi.²⁸ Xuddi shu holat va o'xshash jihatlar M. Frishmutning "Jahon adabiyotida Faust turi" maqolasida hamda G. V. Yakushevaning "XX asr vasvasalarida Faust" monografiyasida ham tahlil qilingan.

Bobning ikkinchi fasli **"Gyote falsafasining tadrijiy bosqichlari va badiiy asarlardagi aksi"** deb nomlangan bo'lib, Gyote falsafasining asosiy g'oyalari, ularning "Faust" asaridagi ifodasi. asardadi dualistik qarashlar, yaxshilik va yovuzlikning o'zaro kurashi, shuningdek, Gyotening san'at va borliq haqidagi falsafiy qarashlariga bag'ishlangan.

Gyote falsafasining ahamiyatli jihati shundaki, uni o'rab olgan aqlni materiyadan, tanani esa ruhdan ajratuvchi dualistik tafakkurga qaramay, u pirovardida insonning individ sifatida birligiga va tabiat bilan hamohangligiga ishongan. Uning falsafiy tafakkurining asosiy mazmunini "jamiyatda faqat yaxshilikka va yaxshi insonlar sari intilish" tashkil etgan.²⁹ Gyotening fikricha, inson va tabiat ikki alohida olam bo'lsa-da, ularning rivojlanishi va yo'nalishi umumiy universal qonunlar asosida boshqariladi. U inson tabiatga qarshi emas, balki ikkalasi bir butunlikni tashkil etadi, deb ishongan. Shu o'rinda aytish joizki, Gyotening "Faust" asari nafaqat badiiy asar, balki insoniy holatni chuqur falsafiy tadqiq etuvchi asardir. Olimning intilish, ikkiyuzlamachilik va ma'no izlash haqidagi g'oyalari hikoyaga chuqur singdirilgan bo'lib, "Faust" asari nafaqat Germaniyada, balki ingliz va amerika adabiy an'analari ham ta'sir ko'rsatgan.

Bizning tadqiqotimiz markazida turgan Gyotening "Faust" asarida asosiy falsafiy tamoyil "Streben" – ya'ni intilish konsepsiyasi hisoblanadi. Gyotening nuqtayi nazariga ko'ra, insoniyat mohiyati doimiy intilishda, cheksiz bilim izlashda, o'zini rivojlantirishda va hayotning mazmunini anglashda mujassam. Ushbu g'oya Faust obrazida namoyon bo'lib, u doimo mavjud imkoniyatlardan ko'proq narsaga intiladigan, bezovta inson ruhining timsoli sifatida gavdalanadi. Gyotening Fausti ilhomlantiruvchi va ogohlantiruvchi obraz bo'lib, u bilim izlashning qadrli, ammo xatarli ekanini ham ko'rsatadi.³⁰ Gyote falsafasining ingliz adabiyotiga ta'siri romantik shoirlar ijodida kuzatilishi mumkin. Ular ham individual va

²⁷ Ленкова Н.Р. Фаустианская тема в английской литературе XX века: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Самара, 2017. – С. 12.

²⁸ Шор Г.А. "Фауст" И.В. Гете и русская литература XX века: мотивы, образы, интерпретации. // Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Екатеринбург, 2009. – С. 4.

²⁹ Wilkinson E.M. Willoughby L.A. Goethe: Poet and Thinker. – London: Methuen, 1962. – P. 11.

³⁰ Goethe J. W. Faust: Part One. – Tubingen: Cotta, 1808.

transsendentsiyaga intilish mavzularini o'rganganlar. Uilyam Vordsvort insonning tabiat bilan aloqasi va ruhiy to'laqonlikka intilishi haqidagi izlanishlarida Gyotening intilishni inson mavjudligining asosiy qismi sifatida ta'kidlashini aks ettiradi. Vordsvortning she'riyati ko'pincha hayotning ma'nosi maqsadlarga erishishda emas, balki aynan izlanishning o'zida ekanligini ta'kidlaydi.³¹ Ingliz romantizmining yana bir muhim arbobi Persi Bisshe Shelli ham Gyotening falsafasi bilan bog'liq mavzulardan o'z ijodida foydalangan. "Zanjirband Prometey" asarida Shelli zulmga qarshi qo'zg'olon hamda intellektual va ruhiy erkinlikka intilish g'oyalarini o'rganadi. Bu g'oyalar Gyotening Faustini jamiyat va din tomonidan qo'yilgan cheklovlarga qarshi kurashayotgan obraz sifatida aks ettiradi.³²

Gyote insoniyatga cheksiz mehr va ishonch bilan qarab, uning qudratini ulug'laydi va ayni paytda o'zligidan iztirob chekadi. "Faust" tragediyasi insonning ruhiy imkoniyatlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Asarning tuzilishiga e'tibor qaratilsa, u she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ikki qismdan iborat tragediyadir. Klassitsizm an'analariga muvofiq, "Faust" "Bag'ishlov", "Teatr muqaddimasi" va "Arshi a'lodagi debocha" bilan boshlanadi. Muqaddimada san'atga turlicha qarashlar aks etib, qiziqchi, shoir va muzey direktorining suhbatlari orqali yoritiladi. Shoir "Haqiqiy san'at avlodlarga meros bo'lib qoladi" degan nuqtayi nazarni ilgari suradi, qiziqchi esa "Bugungi yoshlarni xursand qilish muhim, zamonga mos bo'lish esa kichik ish emas" deb hisoblaydi. Muzey direktori esa san'atning asosiy vazifasi sarguzasht ruhini uyg'otish, ko'zga zavq, dilga esa quvonch bag'ishlashdan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. "Faust" asarida Gyote san'at to'g'risidagi ana shunday falsafiy qarashlariga asoslangan bo'lib, shoir Faust timsolida o'zining inson va borliq haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

Bobning "**Gyote ijodida Mefistofel va Doktor Faust obrazlarining evrilish jarayoni**" deb nomlangan uchinchi faslida Gyotening "Faust" asaridagi Mefistofel va Doktor Faust obrazlarining ruhiy va falsafiy evrilishi, Mefistofel obrazining iblis sifatidagi ijobiy va salbiy tomonlari, Faustning maqsadga erishish yo'lidagi ichki kurashlari tasvirlanadi va tahlil etiladi.

Turli adabiyotlardagi Faustian syujeti, yerdagi inson borlig'idagi "yovuzlik", "Ilohiy" va "Shaytoniy" obrazlar, bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Qadimgi masalning Gyote versiyasi, bir vaqtning o'zida shubhasiz optimistik (oldindan belgilangan, "ma'rifiy") va polisemantik-ramziy ("ochiq") yakuni bilan Mefistofel va Faust obrazlarining bir qator zamonaviy moslashuvlarini keltirib chiqardi, ularning ziddiyatlari, yarashuvlari tasvirlangan. Turli janrlarda taqdim etilgan muloqot, hamkorlik yoki o'zaro janjal hayotning mazmuni, erkinlik chegaralari, taraqqiyot tarixiga oid abadiy savollarga oydinlik kiritishga yoki hech bo'lmaganda yangicha tarzda talqin etilishiga xizmat qiladi. Fidoyilarning foydasi, "ayol" va "erkaklik", "tabiiy" va "ma'naviy", "oqilona" va "hissiy" tamoyillar o'rtasidagi munosabatlar, jasorat yoki "tinchlik" qonuniyligi va boshqalar ham Mefistofel obrazi va Doktor Faust qahramonlari orqali kitobxonga tushunarli tarzda yetkazilgan.

³¹ Abrams M.H. The Mirror and the Lamp: Romantic Theory and the Critical Tradition. – Oxford: Oxford University Press, 1971. – P. 366.

³² Shelley P. B. Prometheus Unbound. – New York: D.C. Heath & Co, 1820. – P.189.

Mefistofel asrlar davomida turli adabiy asarlarda, ayniqsa, Iogan Wolfgang fon Gyotening "Faust" asarida tasvirlangan murakkab personajlardan biridir. Badiiy adabiyotda Mefistofel obrazi ko'pincha vasvasaga uchragan shayton yoki jin sifatida tasvirlangan, u odamlarni o'z ruhi evaziga kuch yoki bilim olishga bo'lgan intilishi bilan Faustian bitimlar yoki savdolashishga undaydi.

"Mefistofel xarakterining asosiy jihatlaridan biri sifatida turli talqinlarda uning ruhiy holatidagi o'zgarishlarga e'tibor qaratish lozim. Ayrim talqinlarda u inson qalbini buzuvchi yo'lga boshlovchi va halokat sari yetaklovchi mutlaq yovuz kuch sifatida tasvirlanadi. Biroq, boshqa izohlarda Mefistofel o'zining motivlari va istaklari bilan murakkabroq xarakter sifatida tasvirlanib, kitobxon ommasiga yetkazilgan.

Bizning diqqatimizni tortgan qahramon, Gyotening "Faust" asaridagi Mefistofel obrazidir³³. U o'zida an'anaviy e'tiqodlarni shubha ostiga qo'yishni mujassam etgan ayyor va manipulyator xarakterga ega bo'lgan qahramon sifatida gavdalanadi. Bu obrazga Gyotening "Faust" asarida, asosiy qahramonning e'tiqodlari va qadriyatlariga qarshi kurashuvchi, uni bilim va istaklari chegaralarini o'rganishga undaydigan shaxs sifatida gavdalantiriladi. Asar davomida, Mefistofel o'zgarishlarga uchraydi va adib uning xarakteridagi insoniy xususiyatlarini ochib beradi. Dastlab, u hamdardlik ko'rsatishni boshlaydi va keyinchalik, hatto, o'z harakatlarining oqibatlaridan afsuslanadi, bu uning ruhiyatida jiddiy murakkablikni ko'rsatadi.

Asarning boshidan to oxirigacha Mefistofelning Faust bilan o'zaro munosabati yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi dinamik harakatning ta'sirini ochib beradi va shu bilan birga uning xarakteridagi nozik tabiatini ham tasvirlaydi. U Faustning ustoz bo'lib, uni o'z-o'zini kashf qilish va o'zgartirish yo'lida boshqarganligi ham ta'kidlanadi. Asar davomida Faust o'zining axloqiy ikkilanishlari va istaklari bilan kurashish jarayonlari, Mefistofel o'z fe'l-atvori uchun u tarafda bo'lib xizmat qiladi, uning e'tiqodlariga qarshi chiqadi va uni ichki jinlarga qarshi turishga undaydi.

Doktor Faustning Mefistofel ta'siri ostidagi ruhiy evrilishlari adabiy tanqidning markaziy nuqtasiga aylangan. Erich Heller, zamonaviy nemis adabiyotini o'rganishida, Mefistofel tomonidan yuzaga kelgan Faustning ichki kurashi erkin iroda, axloq va yovuzlik tabiatiga oid kengroq falsafiy savollarni aks ettiradi, deb ta'kidlaydi. Hellerning fikriga ko'ra, Faustning sayohati nafaqat tashqi harakatlardan, balki uning istaklari, qo'rquvlari va ambitsiyalari bilan ichki kurashlardan iborat bo'lib, bu Mefistofel tomonidan manipulyatsiya qilinib, uning ruhiy halokatiga olib keladi³⁴. Faust obrazidagi bu psixologik "Faust" asarini tahlil qilish uchun boy matn holiga keltirilib, ingliz va amerika adabiyotidagi o'xshash mavzularni tasvirlashda ta'sir ko'rsatgan.

Doktor Faust xakteri Gyotening "Faust" asarida tasvirlangan adabiyotning fojiali siymosi sifatida gavdalanadi. Faust obraziga batafsil yondashsak: u cheksiz bilim va kuch evaziga shayton Mefistofel bilan shartnoma tuzgan olim. Faust

³³ Bloom H. The Western Canon: The Books and School of the Ages. – California: Harcourt Brace & Company, 1994. – P 67.

³⁴ Heller E. The Disinherited Mind: Essays in Modern German Literature and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1962. – P 89.

ruhiyatidagi burilishlar asarning dramatik keskinligi va axloqiy noaniqligida markaziy o‘rin tutadi. Doktor Faustning ruhiyatidagi evrilishlar, asarning so‘nggi qismlarida Faust o‘z qilmishlariga chuqur pushaymonlik va umidsizlik hissini boshdan kechirganlik holatlari yuz berganligida ko‘rishimiz mumkin. Borgan sari uning ruhiyatidagi burilishlar fojiali tarzda avjiga chiqadi, chunki u o‘z mag‘rurligi va takabburligi bilan taslim bo‘lish jarayoniga yetib keladi va oxir-oqibat ilohiy hokimiyatga qarshi bo‘ysunishning yakuniy harakatida o‘z taqdirini muhrlaydi³⁵.

Faust ruhiyatidagi evrilishlar va burilishlar uning fojiali trayektoriyasini belgilab beruvchi ezgulik va yovuzlik, iroda erkinligi va taqdirning murakkab o‘zaro ta‘sirini ta‘kidlash uchun dramatik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Oxir-oqibat, Doktor Faust nazoratsiz ambitsiyalarning xavf-xatarlari va ezgulik yo‘lidan adashish xavfi haqida ogohlantiruvchi asar sifatida talqin etiladi. Uning ruhiy evrilishlari va burilishlari inson tajribasining zamirida yotgan yorug‘lik va zulmat, aql va istak o‘rtasidagi doimiy kurash haqida kuchli eslatma bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanida inson qalbining demonlashuvi”** deb nomlangan bo‘lib, estetizm adabiyoti, inson konsepsiyasining Dorian Grey obrazi orqali ifodalanishi, Dorian Grey obrazining demonizatsiyasi va axloqiy inqirozi, asardagi obrazlarning simbolik ahamiyatiga bag‘ishlanadi.

Bobning birinchi fasli **“Estetizm adabiyotida inson konsepsiyasining Dorian Grey obrazi orqali ifodalanishi”** deb nomlanib, Estetizm adabiyotida inson konsepsiyasi, Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarida ushbu konsepsiyaning ifodalanishi, Dorian Grey obrazi orqali insonning go‘zallikka intilishi va bu yo‘ldagi axloqiy tanazzuli badiiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur asar nafaqat Estetizm harakatining badiiy in‘ikosi, balki uning mutlaqlashtirilishi va chegarasiz qo‘llanilishining tanqidiy talqinidir. Estetizm harakati “san‘at – san‘at uchun” tamoyiliga asoslanib, go‘zallik va estetik tajribalarni axloqiy hamda ma‘naviy qadriyatlardan ustun qo‘yishni targ‘ib etgan. Uayldning bosh qahramoni Dorian Grey ushbu falsafaning mujassamlanishi sifatida tasvirlanib, hayotini mutlaq estetik zavq va tashqi go‘zallikni saqlab qolishga bag‘ishlaydi. Dorianning asar davomida kechgan ichki transformatsiyasi estetizmni axloqiy mezonlardan ajratishning salbiy oqibatlarini badiiy talqin orqali ochib beradi. Dastlab u beg‘ubor go‘zallik timsoli sifatida tasvirlanib, rassom Bazil Xolluord tomonidan san‘atning ideal shakli sifatida e‘tirof etiladi. Biroq Dorian lord Genri Uottoning hedonistik qarashlariga tobora ko‘proq moyillik bildirgan sari, hayotni axloqiy cheklovlardan holi, faqat estetik zavq va lazzatlanish manbai sifatida qabul qila boshlaydi. Uning obrazi inson tabiatini aks ettirib, estetik yo‘l bilan mukammallikka intilish jarayonida axloqiy tamoyillarni inkor etish qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini namoyon etadi. Natijada, Dorian shaxsiy inqiroz va ma‘naviy tanazzulga yuz tutadi, bu esa estetizm falsafasining mutlaqlashtirilishi ortidan keladigan halokatli natijalarga ishora qiladi.

³⁵ Heller E. The Disinherited Mind: Essays in Modern German Literature and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1962. – P 89.

Uayldning Dorian Grey obrazida Valter Paterning estetik qarashlari sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. “Uyg‘onish” asarida Pater hayotni kuchli his-tuyg‘ular bilan yashash, go‘zallik va estetik tajribalarni iloji boricha to‘liq idrok etish g‘oyalarini ilgari suradi. Biroq, Uayld Dorian obrazi orqali bu qarashlarga tanqidiy munosabat bildiradi. Dorian estetizm tamoyillarini mutlaqo qabul qilib, go‘zallik va lazzatlanish izlashni hayotining bosh mezoniga aylantiradi. Natijada, bu jarayon uni axloqiy va ruhiy inqirozga olib keladi. Shu tariqa, Uayldning asari insonning axloqiy mas‘uliyatdan voz kechib, faqat estetik zavq izlashining xavf-xatarlarini yoritadi, hamda Estetizm mutlaq darajaga yetganida inson hayotining axloqiy mazmuni yo‘qolishi mumkinligini ta’kidlaydi.³⁶

Yuqorida ta’kidlanganidek, estetizm adabiyotida inson konsepsiyasi go‘zallik va estetik qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu qarash inson ma’naviyati va axloqiy mezonlariga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Estetik nazariyaga ko‘ra, inson hayotining asosiy maqsadi go‘zallikni yaratish va uni baholashdan iboratdir. Mazkur oqim namoyondalari va tarafdorlari hayotning har bir jabhasida, shu jumladan san’at, moda, me’morchilik va ijtimoiy hayotda go‘zallikni izlashga intiladilar. Uolter Pater va Oskar Uayld kabi yozuvchilar bu nazariyaning eng yirik vakillaridir. Pater o‘zining “Studies in the History of the Renaissance” asarida estetizmning asosiy tamoyillarini yoritib, “san’at san’at uchungina” tamoyilini ilgari suradi va shu g‘oya bilan mashhur bo‘ladi.

Oskar Uayld estetizm tamoyillarini nafaqat o‘z hayotida, balki “Dorian Greyning portreti” asarida ham aks ettiradi. Uning qarashlariga ko‘ra, go‘zallik hayotning eng oliy shakli bo‘lib, estetik tajriba inson mavjudligining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi³⁷. Mazkur go‘zallikka intilish esa insoniy qadriyatlarni chetlab o‘tishga olib keladi. Dorian Grey obrazi orqali Uayld faqat estetika va yuzaki go‘zallikka yo‘naltirilgan hayot kechirish xavfini o‘rganadi. Dorianning tinimsiz zavq olishga intilishi va mas‘uliyatdan qochishi ma’naviy tanazzulga va o‘z-o‘zini yo‘q qilishga olib keladi. Dorian Grey obrazi o‘quvchilarni axloqiy tamoyillari va ichki mazmundan mahrum bo‘lgan hayotga intilishning bo‘shligi va befoydaligidan ogohlantiruvchi qissa bo‘lib xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi fasli **“Dorian Grey obrazining demonizatsiyasi va axloqiy inqirozi”** deb nomlanib, ushbu fasl Dorian Greyning portreti orqali uning ichki “demon”ini va axloqiy o‘zgarishlarini tahlil qilish orqali go‘zallik, yosh va axloqiy qadriyatlar haqidagi fikrlarni ifodalaydi. Shuningdek, Dorian Grey portreti orqali uning ichki dunyosidagi salbiy o‘zgarishlar, estetik ideal va axloqiy qoidalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganadi.

Dorian Greyning demonlashuvi Oskar Uayldning estetik va falsafiy izlanishlarida nazoratsiz hedonizmning axloqiy inqirozga olib keluvchi halokatli ta’sirini ochib beruvchi markaziy jihat sifatida namoyon bo‘ladi. Dorian axloqiy cheklovlardan voz kechib, mutlaq lazzatlanish tamoyiliga asoslangan hayot kechirar ekan, uning tashqi ko‘rinishi o‘zgarmay qoladi. Biroq, uning portreti – ruhiy holatining ramziy aksidir – uning ma’naviy tanazzulini tobora aniqroq ifodalay

³⁶ Pater W. The Renaissance: Studies in Art and Poetry. – London: Macmillan, 1873. – P. 252.

³⁷ Wilde O. The Picture of Dorian Gray. – London: Ward, Lock & Co., 1890. – P. 18.

boshlaydi. Begʻubor insonning asta-sekin yovuzlik timsoliga aylanishi axloqiy tamoyillardan voz kechishning halokatli oqibatlarini yorituvchi chuqur falsafiy tafakkur mahsuli sifatida talqin etiladi. Dorianning yovuzlikka tushishi insoniy empatiyadan uzoqlashishi, shafqatsizlik va manipulyatsiya qilishga boʻlgan tayyorligi bilan tasvirlanadi. Kristofer Nassaar oʻzining Uayld ijodiga oid izlanishlarida, Dorianning oʻzgarishi faqat tashqi taʼsirlar natijasi emas, balki uning buzuqlikka moyilligining aks etishi ekanini taʼkidlaydi³⁸. Asarda Dorian lord Genri falsafasining jozibasiga duch kelganidan keyin, hissiy lazzatlar bilan bogʻliq hayotga qarshi turishga qodir emasligi koʻrsatiladi. Uning yovuzlikka aylanishi asta-sekin sodir boʻladi, bu bir qator axloqiy qoidalarni buzish orqali belgilab, oxir-oqibat yovuzlikning eng yuqori darajasiga – qotillikka – yetadi.

Oskar Uayldning “The portrait is a mirror of his soul, reflecting his inner demons rather than his external appearance”³⁹ (“Portret uning ruhi oynasi boʻlib, tashqi qiyofasidan koʻra ichki iblisligini aks ettiradi.” – A.Z.) bu soʻzlar Dorian Greyning portreti uning ichki dunyosini, maʼnaviy tanazzulini va ichki ziddiyatlarini aks ettirishini ifodalaydi. Asar qahramoni goʻzallik va yoshlikka erishish uchun axloqiy qadriyatlardan voz kechadi. Yozuvchi Davisning soʻzlariga koʻra, bu jarayon uning portretida “a living testament to his moral corruption”⁴⁰ (“uning axloqiy buzuqligining tirik guvohi” – A.Z.) tarzida tasvirlanadi.

Dorian Greyning portreti uning ruhiy holatidagi salbiy oʻzgarishlarni aks ettiradi. Smithning fikriga koʻra, Uayldning “*The transformation of Dorian Gray’s portrait highlights Wilde’s exploration of the duality of human nature*”⁴¹ (“*Dorian Greyning portretidagi oʻzgarish Oskar Uayldning inson tabiatining ikki tomonlama mohiyatini tadqiq etishini yoritib beradi.*” – A.Z.) degan soʻzlari orqali, portretning oʻzgarishi Dorian Greyning ichki duallik va demonlashuvini koʻrsatadi.

Dorian Grey obrazining demonlashuvi, avvalo, uning axloqiy qadriyatlardan voz kechishi bilan bevosita bogʻliqdir. Asar goʻzallik va yoshlikka haddan tashqari intilishning ruhiy va axloqiy oqibatlarini tanqidiy nuqtai nazardan oʻrganadi. Uayld Dorian Greyning portreti romanida inson tabiatining ichki ziddiyatlarini yoritib, estetik ideal va axloqiy masʼuliyat oʻrtasidagi murakkab qarama-qarshilikni ochib tashlaydi. Ushbu asar orqali muallif tashqi joziba va ichki axloqiy qadriyatlarining koʻpincha bir-biriga zid boʻlishi mumkinligini namoyon etadi. “Dorian Greyning portreti” gotik adabiyotning yuksak namunalaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Asarda bosh qahramon Dorian Grey tasvirlanib, u rassom Bazil Xolluord tomonidan chizilgan maftunkor portretiga mahliyo boʻladi. Lord Genrining falsafiy taʼsiri ostida Dorian abadiy yoshlik va goʻzallik evaziga oʻz ruhini fido qilishga rozi boʻladi. Shu bilan u ikki xil hayot kechira boshlaydi: bir tomondan, shaxsiy hayotida istaklarini hech qanday axloqiy cheklovlarsiz qondiradi, boshqa tomondan esa jamiyat oldida obroʻ-eʼtiborli shaxs sifatida gavdalanadi. Dorianning portreti uning maʼnaviy inqirozi va axloqiy tanazzulini aks ettira boshlagach, u oʻzining

³⁸ Nassaar C. Into the Demon Universe: A Literary Exploration of Oscar Wilde’s “The Picture of Dorian Gray”. – Yale University Press, 1974. – P. 115.

³⁹ Wilde O. The Picture of Dorian Gray. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1891. – P. 251

⁴⁰ Davis J. Oscar Wilde and the Aesthetic Movement. – New York: Routledge, 2007. – P. 67.

⁴¹ Smith A. The Decadent Vision of Oscar Wilde. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – P.56.

ikkiyuzlamachiligini saqlab qolishga qodir bo‘lmaydi. Natijada, Dorian portretni pichoqlash orqali o‘zining buzuq hayotidan qolgan izlarni yo‘q qilishga urinadi, biroq bu harakat uning o‘limi bilan yakunlanadi.

Ko‘plab tanqidchilar, jumladan, Josep Karol va Don D’Ammassa, ushbu asarni inson tabiatining murakkab jihatlarini ochib beruvchi muhim adabiy asar sifatida baholaydilar⁴². Asarda qahramonlar ko‘pincha axloqiy inqirozga uchraydilar yoki jamiyat talablariga moslashish maqsadida o‘z shaxsiyatlarida o‘zgarish va moslashuvchanlik namoyon qiladilar. Ushbu jarayon gotik adabiyotga xos elementlar orqali tasvirlanadi. Dorian Grey obrazining demonlashuvini tahlil qilishda asarning markaziy g‘ayritabiiy jihatini hisobga olish muhimdir. Ushbu g‘ayritabiiy elementni shakllantirishda asosiy rol Bazil Holluord tomonidan chizilgan Dorian Greyning portretiga tegishlidir. Portret nafaqat hikoyaning mistik asosini yaratadi, balki uning ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchini fantastik olamga sho‘ng‘ishga undaydi.

Bobning **“Dorian Greyning portreti” asarida portretning simbolik ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi bobida asarda tasvirlangan portret va boshqa obrazlarning asar rivojidagi o‘rni, Gyotening “Faust” va Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarlaridagi demonik bitim, inson nafsining cheksizligi hamda yo‘ldan uruvchi obrazlar orqali aks etgan axloqiy inqiroz va qahramonlar tanlovining fojiali oqibatlarini tahlil qilinadi.

“Dorian Greyning portreti” asaridagi portret nafaqat syujet vositasi, balki Uayldning ikkiyuzlamachilik, buzilish, san’at va hayot o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish orqali markaziy ramz bo‘lib xizmat qiladi. Asar davomida portret Dorianning ruhi moddiy ko‘rinishga ega bo‘lib, uning axloqiy tanlovlarining oqibatlarini aks ettiradi, uning tashqi ko‘rinishi esa vaqt va gunoh izlaridan saqlanadi.

Portretning ramziy ahamiyati Dorian obrazining haqiqiy holatini aks ettirish qobiliyatida, uning tashqi ko‘rinishi orqali saqlab qolinayotgan aldovga zid keladi. Donald Loularning asar tahliliga ko‘ra, portret “ruhning ko‘zgusi” vazifasini o‘taydi, bu esa Uayldning Viktoriya jamiyatiga nisbatan kengroq tanqidiga mos keladi⁴³. San’at inson o‘zligini aks ettirishga xizmat qilishi mumkinligi haqidagi g‘oya, uning axloqiy haqiqatlarni ochib berish kuchiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Uayld portretni Dorianning mavjudligi bilan bog‘liq ikkiyuzlamachilikni o‘rganish uchun ishlatadi – uning jamoat personaji va shaxsiy gunohlari o‘rtasidagi bo‘linishni ko‘rsatadi. Dorian tobora axloqiy jihatdan buzilgan harakatlarni amalga oshirar ekan, portret uning harakatlarining jismoniy oqibatlarini aks ettiradi va har bir gunoh bilan yanada jirkanch bo‘lib boradi. Portretning ushbu o‘zgarishi Dorian yashirishga urinayotgan axloqiy buzilishning vizual ifodasi bo‘lib xizmat qiladi, asarning aldov va ko‘rinishlarga asoslangan hayotning xavflari haqidagi mavzularini kuchaytiradi.

Portret, shuningdek, axloqiy chegaralarsiz hayotning ta’sirini ifodalovchi metafora sifatida ham xizmat qiladi. Dorianning o‘z harakatlarining oqibatlarini

⁴² Carroll J. Aestheticism, Homoeroticism, and Christian Guilt in The Picture of Dorian Gray. // *Philosophy and Literature*, 29(2), 2005. – P. 286-304.

⁴³ Wilde O. *The Picture of Dorian Gray*. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1891. – P. 246.

qabul qilishdan bosh tortishi, uning gunoh va aybini portretga tashqi tarzda aks ettirishga olib keladi, bu unga yosh go'zalligini saqlab qolish imkonini beradi, ammo uning ruhi buziladi. Bu ko'rinish va haqiqat o'rtasidagi tafovut Dorianning halokati bilan yakunlanadi, chunki uning gunohlari ko'pligi unga og'ir bo'lib qoladi va u portretni yo'q qilishga urinadi, bu esa o'z navbatida o'zining halok bo'lishiga zamin yaratadi.

Yohann Volfgang Gyotening "Faust" va Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" asarlari o'rtasidagi bog'liqlik turli falsafiy, axloqiy va estetik jihatlarga asoslanadi. Ikkala asarda ham inson istaklari, ma'naviy inqiroz va abadiy yoshlik yoki bilim uchun qilingan shartnoma markaziy mavzu sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu asarlarni bir-biriga tutashtiruvchi asosiy nuqta asar qahramonlarining demonik bitimi hisoblanadi. Gyotening "Faust" asarida bosh qahramon Doktor Faust cheksiz bilim va qudratga ega bo'lish uchun o'z jonini Mefistofel bilan shartnoma orqali fido qiladi. Oskar Uayld asaridagi Doriyen Grey esa abadiy yoshlik va go'zallikka erishish evaziga o'z qalbini "shaytoniy bitim" orqali yo'qotadi. Har ikki asarda ham asosiy qahramon o'z nafsining quliga aylanadi va vaqt o'tishi bilan bu tanlovning fojiali qurbonlariga aylanishadi.

Ushbu asarlarning yana bir umumiy o'xshash jihati shundaki, inson nafsining cheksizligi va uning fojiali oqibatlarini natijasida asar bosh qahramonlari axloqiy inqirozga yuz tutishadi. Ya'ni, Faust ilmiy bilimsizlikdan chiqish va yangi haqiqatlarni anglash yo'lida ko'plab axloqiy muammolarga duch keladi. Dorian Grey esa umrboqiy yoshlik va go'zallik, hayot lazzatlaridan bahramand bo'lish istagiga berilib, axloqiy tubanlikka botadi.

XULOSA

1. Yevropa adabiy jarayonida motiv tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu atamaning yagona talqini mavjud emasligi mazkur konsepsiyaning tadqiqotidagi dolzarb muammo sifatida qaraladi. Adabiyotshunoslikda motiv konsepsiyasi turli madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, uning yagona talqini mavjud emas. Bu esa turli nazariy maktablar va yo'nalishlar orasida mazkur tushunchaning har xil talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy rus adabiyotshunosligida motiv adabiy asarning markaziy mohiyati sifatida talqin qilinsa, Yevropa an'analari u asarning g'oyaviy va estetik komponenti sifatida ko'riladi. Ushbu tafovutlarni bartaraf etish motivning nafaqat mazmunini, balki uning badiiy asarlarning umumiy strukturasi va semantik tizimidagi o'rnini yanada aniqroq belgilashni talab qiladi. Shu bilan birga, mazkur atama zamonaviy tadqiqot yondashuvlari nuqtayi nazaridan dolzarbligini saqlab qoladi.

2. Badiiy asarlarda simvolik obrazlarning demonik o'zgarishi dramatik keskinlik yaratish hamda voqealar rivojlanishida muhim narrativ texnika hisoblanadi. Demonlashuv motivi esa adabiyotda inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar va tajribalarni chuqurroq yoritish imkonini beradi. Gyotening "Faust" idagi Mefistofel va Uayldning "Dorian Greyning portreti" dagi portret timsoli o'quvchida ichki hissiyotlar va konfliktlarni uyg'otib, syujetni yanada dinamik qiladi. Bu texnika o'quvchini hodisalar rivojiga jalb etib, obrazlarning ichki

dunyosini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, obraz badiiy asarlarning hissiy ta'sirini oshirishda kuchli vosita sifatida o'zini namoyon etadi.

3. Insonning shayton bilan kelishuvi motivi hayot mazmuni hamda yaxshilik va yomonlik tajribasini anglash imkonini beradi. Ushbu motiv insoniyat tarixidagi eng qadimiy adabiy timsollardan biri bo'lib, turli adabiy janrlarda keng uchraydi. Bu motivning Gyotening "Faust" asaridagi talqini shaxsning bilimga intilishi va bu yo'lda ma'naviy qarorlarni qabul qilish qiyinchiliklarini aks ettiradi. Ushbu motivning kengaytirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, insonning shayton bilan kelishuvi uni axloqiy va ruhiy sinovlardan o'tkazib, hayot mazmunini yangicha anglash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, badiiy asarning universalligi va ko'p ma'noliligini ta'minlaydi.

4. Gyote falsafasi inson o'z-o'zini kashf qilish, bilim va donolikka intilish bilan bog'liq bo'lib, "Faust" asarida murakkab tarzda ifodalangan. Gyote falsafasining markazida insonning hayot mazmunini anglash yo'lidagi izlanishlari turadi. "Faust" asarida Gyote inson va tabiatning birligi, shuningdek, insonning bilimga bo'lgan intilishi orqali erishadigan ma'naviy kamoloti g'oyasini ilgari suradi. Asardagi Mefistofel obrazi shaytoniy kuchlarning vakili sifatida emas, balki insonning ichki ziddiyatlarini sinovdan o'tkazuvchi timsol sifatida namoyon bo'ladi.

5. Gyotening "Faust" asarida dualistik inson tabiati va san'atning o'zgartiruvchi kuchi chuqur ifodalangan. Dualizm tushunchasi Gyote falsafasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. "Faust" tragediyasi orqali u ezgulik va yovuzlik, ruh va materiya, bilim va his-tuyg'ular o'rtasidagi ziddiyatlarni ifoda etadi. Asar insoniyatning bu muammolarni hal qilishdagi azaliy kurashini aks ettiradi va badiiy ijodning inson ruhini boyitishdagi imkoniyatlarini yoritadi. Gyotening asarida ushbu dualizm san'at vositasida inson ruhining imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yo'l ochadi.

6. Inson kontsepsiyasi estetizm adabiyotida go'zallik va estetik qadriyatlar orqali yoritiladi. Estetizm go'zallikni inson hayotining mazmuni va maqsadi sifatida talqin qiladi. Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" asarida bu g'oya go'zallikning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib beradi. Asarda Dorian Grey obrazi orqali insonning go'zallikka intilishi va bu yo'ldagi axloqiy tanazzuli tasvirlanadi. Bu konsept estetizmning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

7. Dorian Grey obrazi orqali go'zallikka intilishning axloqiy oqibatlarini chuqur yoritilgan. Uayld o'z qahramoni orqali faqat tashqi go'zallikka qaratilgan e'tibor insonning ma'naviy tanazzuliga olib kelishini ko'rsatadi. Dorianning o'z portreti orqali ichki ziddiyatlari va buzilish jarayonlarini ko'rsatish orqali Uayld badiiy estetikadan axloqiy mas'uliyatni ajratib olishning xavflarini ta'kidlaydi.

8. Dorian Greyning portreti uning ichki demonlari va axloqiy o'zgarishlarini ramziy ifoda etadi. Portret Dorianing ichki dunyosidagi salbiy o'zgarishlarni ifodalab, uning ichki va tashqi qiyofasi o'rtasidagi keskin tafovutni namoyon etadi. Bu timsol insonning axloqiy mas'uliyatni chetlab o'tganida yuzaga keladigan oqibatlarni o'rganishda muhimdir. Uayld ushbu obraz orqali estetik go'zallikning inson ma'naviyatiga bo'lgan ta'sirini chuqur yoritib beradi.

9. “Dorian Greyning portreti”da portret kuchli ramz sifatida asar mazmunini boyitadi va uning murakkabligini oshiradi. Portret Dorian Grey o‘z hayoti davomida qilgan xatti-harakatlari va qarorlarining ma’naviy va axloqiy oqibatlarini aks ettiradi. Uayldning badiiy uslubi orqali ushbu ramz asarga falsafiy chuqurlik va universallik bag‘ishlaydi. Bu ramz o‘quvchini go‘zallik va axloqiy qoidalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga undaydi. Shu tariqa, “Dorian Greyning portreti” nafaqat estetik ideal va axloqiy mas’uliyat to‘qnashuvi, balki inson tabiatining ichki ziddiyatlarini yorituvchi chuqur falsafiy asar sifatida namoyon bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ В САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

АТАБАЕВА ЗАРНИГОР БАХРАН КИЗИ

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МОТИВА
ДЕМОНИЗАЦИИ В ЕВРОПЕЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ
(НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГЕТЕ И ОСКАРА УАЙЛЬДА)**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №B2022.1.PhD/Fil2205.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета www.samdchti.uz и в информационной сети «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Умарова Махлиё Юнусовна**
доктор филологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: **Каршибаева Улджон Давировна**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Тешабаева Зиёдахон Кадировна
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании ученого совета за номером PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков “_____” _____ 2025 года в _____. (Адрес: 140104, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирован под номером ____). Адрес: 100170, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Телефон: +998 66 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2025 года
(Протокол реестра рассылки № ____ от “____” _____ 2025 года)

Н.З.Насруллаева

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Қулдошов

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А.Киселёв

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (автореферат докторской диссертации (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении противостояние добра и зла формируется как один из основных критериев развития художественного мышления. Корни этого противоречия уходят в литературу античного периода и остаются важной темой в литературно-эстетическом сознании последующих эпох. Особенно в условиях глобализации, цифровой культуры и усиления межкультурного диалога внутренняя духовная борьба человека, его нравственный выбор и духовные поиски находят глубокое отражение в искусстве, в частности, в художественной литературе. Эта ситуация обуславливает необходимость анализа современной интерпретации образов добра и зла, а также их философских и эстетических трансформаций. Эстетическая интерпретация добра и зла, их выражение через художественные образы и проявление в современном литературном контексте требует анализа с концептуальных, лингвокультурных и когнитивных позиций, что определяет актуальность данной темы.

В мировом литературоведении проникновение и принятие христианства в Европе способствовало формированию дуалистических понятий, таких как добро и зло, свет и тьма. Эти концепции начали находить свое отражение в художественных произведениях. В ранних произведениях описывалась борьба главного героя со злом и его победа над ним, однако в эпоху романтизма четкая граница между добром и злом начала постепенно размываться. В результате понятие зла проникло во внутренний мир главного героя и стало частью его «я». Этот процесс был характерен не только для европейской литературы, но и для различных культурных традиций, создавая широкие возможности для изучения межкультурных влияний и сравнительного анализа.

В Новом Узбекистане формируется новый этап развития науки литературоведения. Развиваются научные исследования, гранты и международное сотрудничество, что способствует росту национального литературоведения. В связи с этим в настоящее время для молодых ученых и исследователей создаются большие возможности, что способствует обеспечению перспективного будущего данной сферы. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, говоря о роли литературы, искусства и культуры в жизни нации, отметил: «Изучение и популяризация узбекской классической и современной литературы на международном уровне, анализ этой многогранной темы в тесной связи с важнейшими процессами, происходящими сегодня в мировом литературном пространстве, выработка необходимых научно-практических выводов и определение наших будущих задач, я думаю, имеют большое значение»¹.

¹ Приветственное послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и популяризации узбекской классической и современной литературы на международном уровне» // Источник: <https://xabar.uz//07.08.2018>.

